

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

m.t.parpiyev@andupi.uz

Tel: +998 93 787 80-30

MARKAZIY OSIYODA ILK UYG'ONISH DAVRIDA (IX-XII ASRLAR) IJTIMOIIY-FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markiziy Osiyoda ilk uyg'onishga sabab bo'lgan omillar o'ragnilib, mintaqada yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-falsafiy merosi tahlil qilinib ularning ma'naviy merosi bugungi avlod tarbiyasida muhim omil ekanligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Uyg'onish davri, madaniy muhit, Islom dini, hadislar, Ipak yo'li, ilm-fan, xalqaro muloqotlar, yunon-rim madaniyati, falsafiy meros, axloq.*

Парпиев Мухаммаджон Толибович

Андижанский государственный педагогический институт

Первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе, PhD философских наук, доцент.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЭПОХУ РАННЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ (IX-XII ВЕКАХ)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются факторы, которые привели к первому пробуждению в Центральной Азии, анализируется научное и философское наследие ученых, появившихся в регионе, а также то, как их духовное наследие является важным фактором в образовании сегодняшнего поколения.*

Ключевые слова: *Возрождение, культурная среда, ислам, хадисы, Шелковый путь, наука, международные отношения, греко-римская культура, философское наследие, этика.*

Parpiyev Mukhammadjon Tolibovich

Andijan state pedagogical institute

First vice-rector for Youth Affairs and spiritual and educational affairs,

PhD in philosophy, associate professor

DEVELOPMENT OF SOCIO-PHILOSOPHICAL THOUGHT IN CENTRAL ASIA DURING THE EARLY RENAISSANCE PERIOD (IX-XII CENTURIES)

Abstract. *In this article, the factors that caused the first renaissance in Central Asia are studied, the scientific and philosophical heritage of scholars who*

grew up in the region is analyzed, and it is analyzed that their spiritual heritage is an important factor in the education of today's generation.

Keywords: *Renaissance, cultural environment, Islamic religion, hadiths, Silk Road, science, international communication, Greco-Roman culture, philosophical heritage, ethics.*

Kirish.

Markaziy Osiyodagi uygʻonish davri, insoniyat tarixida katta ahamiyatga ega boʻlib, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning yuksalishi bilan ajralib turadi. Har qanday uygʻonish davrining asosida oʻtgan masala taraqqiyotning toʻgʻri yoʻlini tanlay olish, ezgu maqsad va muddaolarni koʻzlash, shu bilan birgalikda mavjud tarixiy imkoniyatlardan foydalanib qolish bilan bogʻliq ravishda kechadi. Bu ana shu davr madaniy muhiti vakillari, hukmdorlar va soha rivojiga hissa qoʻshadigan davlat amaldorlarining pozitsiyasi boʻlsa, kelajak avlod bu jarayonni avvalambor uygʻonish davriga taʼsir koʻrsatgan omillar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu sabablarni tushunish uchun uygʻonish-rennesansga taʼsir qilgan omillarni kengroq oʻrganish va tahlil qilish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Markaziy Osiyoda uygʻonish davrining kelib chiqishida muhim sabablardan biri siyosiy barqarorlikdir. Shuningdek, uygʻonishning asosiy xususiyatlaridan biri islom sivilizatsiyasining taʼsiri boʻldi. Markaziy Osiyoga Islom dinining tarqalishi ilmiy va madaniy tiklanishga katta turtki berdi. Islom olamida ilm-fanni oʻrganishni targʻib qiluvchi qadriyatlar hukmron boʻlib, ilm-maʼrifat bilan shugʻullanish maʼnaviy vazifa sifatida qabul qilingan. Qurʼonning birinchi oyatlaridan biri “Oʻqi” (Iqroʻ) soʻzi bilan boshlanishi bu madaniyatning ilmga qanchalik ahamiyat berganini anglatadi. Shuningdek, hadislarda ham ilmni oʻrganishning zarurligi koʻp bor taʼkidlangan. Natijada, islom madrasalarida nafaqat diniy ilmlar, balki matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo va boshqa fanlar ham oʻqitilgan. Uygʻonish davri allomalari komparativistikasi bilan shugʻullangan olim A.Muhemedovning fikricha: “Islom dini mamlakatimiz hududiga VIII asrdan boshlab kirib kelgan boʻlsa, arab tili aholi orasidagi muloqot hamda madaniy taraqqiyot vositasiga aylandi. Abbosiylar hukmronligi davrida

xalifalik ulkan hududlarni o'ziga birlashtirgan, lekin xalqlarning milliy-ozodlik harakatlari natijasiga parchalanib ketgandi. Arablar tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosat hamda xalq madaniy hayotiga olib kirilgan yangilik va o'zgarishlar natijasida arab tili Xitoydan Misrga qadar cho'zilgan ulkan hududlarda asosiy til sifatida hurmat qozongandi" [1. 16-b.]. Din nafaqat dunyoqarash shakli, shuningdek, ma'lum bir maqsad va manfaatlar yo'lida insonlarni safarbar etadi hamda jamiyat a'zolarini birlashtirib turadigan, xususiyatiga ham egadir. Lekin, Sharqda ham G'arbda ham din hozirgi qarashlardan farqli tushunilgan. Bugungi diniy qarashlarimizning asosida Markaziy Osiyo xonliklariga tanazzuliga asos bo'lgan diniy qarashlar bilan birga umuman dinga qarshi kurashgan sovet davlatining rasmiy mafkurasi qorishig'i yotadi. Lekin, dastlabki Uyg'onish davrlarida dinni mutlaqlashtirish, har bir jarayonga diniy yondashuv va jamiyatda diniy betoqatlik kayfiyati bo'lmagan va shu sababli har ikki makonda ham ijobiy rol o'ynagan.

Muhokama va natijalar.

Markaziy Osiyo Ipak yo'lida joylashganligi tufayli savdo va madaniy almashinuv markazi bo'lgan. Ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Eron va Yevropa o'rtasida savdo qilinar, bu esa turli hududlarning ilm-fan va madaniyat sohasidagi tajribasini tarqatishga imkon berardi. Savdo yo'nalishlarining rivojlanishi shaharlarning iqtisodiy yuksalishiga sabab bo'ldi. Bu holat, o'z navbatida, ilm-fan va madaniyatga sarmoya kiritish imkoniyatini oshirdi. Buxoro, Samarqand, Xiva va Marv kabi shaharlar Ipak yo'lidagi muhim markazlar bo'lib, ularda ilmiy markazlar, madrasalar va kutubxonalar tashkil etilgan.

Markaziy Osiyo uyg'onishining yana bir muhim sababi madaniy va milliy an'analarning saqlanib qolgani va ularning ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatganidir. Iqtisodiy jihatdan olganda, Markaziy Osiyoning tabiiy resurslarga boyligi va uning strategik geografik joylashuvi mintaqada iqtisodiy taraqqiyotga turtki bergan. Iqtisodiy yuksalish ilm-fan va madaniyat rivojlanishi uchun moliyaviy resurslar yaratgan. Bu holat olimlar va ijodkorlarga qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo uyg'onishining muvaffaqiyati xalqaro muloqotlar

orqali boshqa mintaqalarning ilmiy va madaniy yutuqlarini qabul qilishi bilan ham bog'liq. Xususan, Hindiston, Xitoy va Eron madaniyatlari bilan aloqalar ilm-fan va texnologiyalarning mintaqada tezroq tarqalishiga xizmat qilgan. Bularning barchasi mintaqada uyg'onish jarayonini yanada kuchaytirdi.

Markaziy Osiyo uyg'onishi insoniyat tarixidagi eng muhim madaniy va ilmiy tiklanishlardan biri bo'lib, uning ta'siri hozirgi kungacha sezilib turadi. Bu jarayon nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham ilm-fan va madaniyat rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar faqat Markaziy Osiyo madaniyati uchun emas, balki butun dunyo sivilizatsiyasi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Hozirda ushbu uyg'onish davrining sabablari va natijalarini yanada chuqur o'rganish ilm-fanning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Savdo yo'nalishlari orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy ta'sir almashinuvi amalga oshgan. Turli xalqlarning an'anaviy bilimlari, texnologiyalari va ijodiy uslublari bir-biri bilan uyg'unlashgan.

Qoraxoniylar davridagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda ilm-fan, madaniyat, arxitektura va ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar kuzatildi. Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi ostidagi hududlarda madaniy yuksalishning kelib chiqishi uchun bir qator sabablar mavjud bo'lib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshishi turli omillarga bog'liq edi. Ushbu jarayonlarni atroflicha o'rganish orqali Qoraxoniylar davrining madaniy merosini yaxshiroq tushunish mumkin. Qoraxoniylar davlatining barqaror siyosati madaniy yuksalish uchun muhim asos bo'lgan. Davlat hukmdorlari ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta ahamiyat bergan va olimlar, shoirlar, ijodkorlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. Ular o'z hududida madaniy markazlarni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratishgan. Madrasa, masjid va kutubxonalarning barpo qilinishi Qoraxoniylar davrining o'ziga xos madaniy xususiyati hisoblanadi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida tanilgan. Mazkur shaharlarda qurilgan inshootlar nafaqat diniy ehtiyojlar uchun, balki ilmiy va madaniy tadqiqotlar uchun ham xizmat qilgan.

Islom dinining ta'siri Qoraxoniylar davridagi madaniy yuksalishning muhim omillaridan biri bo'ldi. Islom faqat din sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy tizim sifatida ham ahamiyatli bo'lib, ilm-fan va ma'rifatning rivojlanishiga turtki berdi. Islom olamining ma'naviy asoslari, masalan, ilmni qo'llab-quvvatlash va uni tarqatishga bo'lgan chaqiriq, Qoraxoniylar hukmronligidagi hududlarda keng qo'llanildi. "Ilm o'rganish har bir musulmon uchun farzdir" kabi hadislar olim va ijodkorlarning ijtimoiy obro'sini oshirdi. Natijada, ilm-fan va san'atga qiziqish oshdi, bu esa madrasa va boshqa ta'lim muassasalari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, renessans atamasi dastlab g'arbda vujudga kelgan. Fransuzchadan "uyg'onish" deb tarjima qilinishiga sabab antik davr yunon-rim madaniyatining gullab yashnanish va ilk o'rta asrlarda Yevropadagi madaniy turg'unlikdan yangi bosqichga qaytish ma'nosida ishlatilgan. Markaziy Osiyo madaniyatida bexabar mutaxassislar Sharq uyg'onishini qo'llashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Aslida esa Markaziy Osiyolik allomalar ijodiga yunon-rim madaniyati katta ta'sir ko'rsatdi va ilmiy asosini tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi" [2].

Markaziy Osiyo allomalari bo'lgan Farobiy, Ibn Sino va Beruniy o'zlarining ilmiy va madaniy merosida yunon-rim ilm-fan an'alaridan keng foydalanganlar. Bu aloqalar nafaqat ularning asarlari mazmuniga, balki global ilm-fan taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatgan. Yunon falsafasi, tibbiyoti va astronomiyasi Islom madaniyatining ilmiy tizimiga uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirilgan.

Abu Nasr Farobiyning ilmiy va falsafiy merosida yunon falsafasi katta ta'sir ko'rsatgan. Uning falsafiy qarashlari, ayniqsa, Aristotel va Platonning asarlariga asoslangan bo'lib, Farobiy bu ikki buyuk faylasufning g'oyalarini islomiy dunyoqarashga moslashtirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. U Yunon falsafasini islomiy ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirdi. Uning "Fozil odamlar shahari" asarida insoniyatning axloqiy va ma'naviy taraqqiyotining yo'llari haqida so'z boradi. Bu asar Aristotelning "Nikomaxiy axloqi" va Platonning "Davlat" asarlariga murojaatlar bilan boyitilgan va axloqiy kamolot haqidagi fikrlarini qayta tahlil qilib, islomiy axloqiy qarashlar bilan uyg'unlashtirilgan shaklda taqdim etgan. Sharqshunos olim Dmitriy Gutas shunday deb yozadi: "Farobiyning ilmiy faoliyati Yunon falsafasi va Islom madaniyatining muvaffaqiyatli sintezi hisoblanadi" [3. 87-b.]. Farobiyning asarlari Yunon-Rim falsafasi va islomiy fikrning uyg'unlashuvi natijasida yaratilgan bo'lib, uning ilmiy yutuqlari butun insoniyat ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ibn Sinoning tibbiyot va tabiiy fanlar sohasidagi asarlari ham Yunon tibbiyoti an'analaridan ilhomlangan. U Galenning tibbiy ta'limotlarini chuqur o'rganib, ularni qayta ishlagan va o'z zamonining ilg'or tibbiyot nazariyalarini shakllantirgan. Uning "Tib qonuni" asari Yunon-Rim va Islom tibbiyotining uyg'unlashuvi namunasidir. Unda inson tanasining fiziologik jarayonlari va kasalliklarni davolash haqidagi bilimlar keltirilgan. Ibn Sinoning shunday fikri bor: "Inson tanasini tushunish tibbiyotning asosi bo'lib, unda insonning salomatligini saqlash va kasalliklarni davolashning asosiy qoidalarini yotadi" [4]. Ibn Sinoning "Tib qonuni" asarida Galenning tibbiyot haqidagi ta'limotlari yanada takomillashtirilgan. U inson tanasi tuzilishi va kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qilishda Galenning nazariy asoslariga suyangan. Shu bilan birga, u o'z tahlillari va tajribalari orqali ushbu bilimlarni yangi bosqichga ko'targan. Falsafa sohasida Ibn Sino Aristotelning metafizikaga oid ta'limotlarini islomiy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirgan. Uning "Shifo kitobi" asarida Aristotelning mantiq, metafizika va tabiiy fanlar borasidagi qarashlari chuqur sharhlangan va

yangi, o'zgargan ijtimoiy-ilmiy sharoitlarga mos ravishda qayta tahlil qilingan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, falsafa va din o'rtasidagi uyg'unlik inson bilimlari kamolotiga yo'l ochadi. Ibn Sinoning ilmiy merosi yunon va rim ilm-fani bilan yaqin aloqada rivojlangan bo'lib, uning asarlari nafaqat Islom olamida, balki Yevropada ham ilm-fan taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida Yunon-Rim astronomiyasi va geografiyasidan keng foydalangan. U Ptolemeyning "Almagest" asarini chuqur o'rganib, undagi ma'lumotlarni tahlil qilgan va o'z nazariy xulosalarini keltirgan. Beruniyning "Qonun al-Mas'udiy" asarida Ptolemeyning geotsentrizm nazariyasi qayta tahlil qilinib, unga ilmiy tanqid berilgan. Bu allomalarning Yunon-Rim fan va madaniyati bilan aloqasi ularning asarlari orqali nafaqat Islom olamining, balki butun insoniyat ilm-fanining taraqqiyotiga hissa qo'shgan. Ushbu muloqotlarning natijalari bugungi kungacha ilm-fan merosi sifatida saqlanib kelmoqda. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyatida Yunon va Rim olimlarining ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Uning astronomiya, geografiya va matematika sohalaridagi asarlari qadimgi yunon-rim an'alariga asoslangan bo'lib, ularni ilmiy tahlil orqali yanada rivojlantirgan. Beruniy Ptolemey, Arximed va Evklidning asarlarini chuqur o'rgangan va ularning bilimlarini yangi ilmiy metodlar bilan boyitgan.

Beruniyning "Qonun al-Mas'udiy" asarida Ptolemeyning astronomik nazariyalariga asoslangan xulosalar keltirilgan. U Ptolemeyning geotsentrizm g'oyasini tanqidiy qayta tahlil qilib, o'z zamoni uchun ilg'or bo'lgan ko'plab astronomik konsepsiyalarni ilgari surgan. Beruniyning geografiya sohasidagi ishlari ham qadimgi yunon an'alaridan ta'sirlangan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy yutuqlari Yunon va Rim ilm-faniga asoslanishi bilan birga, uni o'zining innovatsion qarashlari va tahlillari orqali jahon ilm-faniga sezilarli hissa qo'shgan. Uning asarlari insoniyatning ilm-fan sohasidagi umumiy taraqqiyoti uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojib ilk Uyg'onish davrining buyuk allomalaridan biri sifatida Markaziy Osiyo madaniyatida muhim o'rin tutadi. Uning asari "Qutadg'u Bilik"

nafaqat adabiy va falsafiy yo‘nalishdagi shoh asar sifatida, balki siyosat, axloq va ma‘rifat sohalarida ham beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib ushbu asar orqali o‘z zamonining ilmiy-ma‘rifiy qarashlarini aks ettirgan va jamiyatning axloqiy, ma‘naviy kamolotini ta‘minlash yo‘lida muhim yo‘l-yo‘riqlar taklif etgan.

“Qutadg‘u Bilik” asarining asosiy mazmuni insonning ma‘rifatli hayoti, adolatli hokimiyat, axloq va jamiyat munosabatlari to‘g‘risidagi fikrlarga bag‘ishlangan. Bu asarda Yusuf Xos Hojib qadimgi turkiy an‘analarni islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda yozgan. Yusuf Xos Hojibning asari turkiy xalqlar uchun siyosiy va axloqiy bilim manbai bo‘lib xizmat qilgan va uning falsafasi Markaziy Osiyodagi madaniy uyg‘onish jarayonining muhim qismini tashkil etgan [5. 87-b].

Xulosa. Markaziy Osiyosida IX-XII asrlarda ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Bu davrda yashab ijod qilgan olim va allomalarning merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning ilmiy merosini chuqur o‘rganib tadqiq etish va unlari zamonaviy ilm-fan bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifadir. Markaziy Osiyoda allomalarining ilmiy va diniy merosi, ularning ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti butun insoniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda yashagan allomalar – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Buxoriy, Zamaxshariy kabi olimlar o‘zlarining chuqur ilmlari, keng dunyoqarashi va ilmiy uslublari bilan nafaqat o‘z zamonasini, balki keyingi asrlar tafakkurini ham yoritgan.

Markaziy Osiyodagi ilk Uyg‘onish davri nafaqat ilm-fan va madaniyat rivojlanishi, balki uning falsafiy mohiyati bilan ham ahamiyatlidir. Bu davrda insoniyat tarixida ilk bor inson aqli, mantiq va ma‘rifatga bo‘lgan ishonch asosiy falsafiy tamoyil sifatida shakllandi. Ilm-fan va falsafa uyg‘unlashgan holda inson hayotining ma‘nosi, jamiyatning axloqiy asoslari va tabiatning qonuniyatlarini tushunishga harakat qilindi. Markaziy Osiyo allomalari bu jarayonning yetakchilari bo‘lib, ularning asarlari falsafiy fikrni chuqurlashtirishga xizmat qildi. Bu davrning falsafiy mohiyati inson ongi va mantiqning cheksiz imkoniyatlarini e‘tirof etishda, ilm va axloq uyg‘unligiga bo‘lgan ishonchda namoyon bo‘ladi. Ilk Uyg‘onish

davri allomalari ilm-fanni inson hayotining markaziy o'rinda ko'rib, uning jamiyatdagi rolga katta ahamiyat qaratgan. Bu jarayon Markaziy Osiyo madaniy merosini jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.Muxamedov. YUsuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasi. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2024. – 16 b.
2. <https://president.uz/oz/lists/view/3864> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Murojaat etilgan sana: 07.01.2023.
3. D.Gutas. "Greek Thought, Arabic Culture", Taylor and Frensis groiup, Nyu-York. 2001, P. 87.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1993 y. 1-3-jildlar.
5. Golden, "Central Asia in World History", Oxford University Press, New York, 2011, p. 87.